



## AUTIZM SPEKTRI BUZILISHLARI: BOLALARDA ANIQLANISHI, SABABLARI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

*Shahribonu Boymamatova*

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti*

*Email:shahribonuboymamatova@gmail.com*

*Teli:97 264 80 81*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada autizm spektri buzilishlari (ASB)ning bolalar orasida aniqlanishi, uning asosiy belgilari, tashxis qo‘yish usullari, yuzaga kelish sabablari hamda zamonaviy davolash yondashuvlari keng yoritilgan. Bugungi kunda autizm spektri buzilishlari nevrologik rivojlanishdagi murakkablik sifatida qaralib, turli xil ijtimoiy, emotsiyal va kommunikativ qiyinchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Maqolada autizmning genetik va atrof-muhit omillari bilan bog‘liqligi, erta tashxis qo‘yishning ahamiyati, shuningdek, muolaja va reabilitatsiya jarayonlarida qo‘llanilayotgan zamonaviy psixologik, pedagogik va tibbiy metodlar haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning bu boradagi bilim va malakalarini oshirish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Maqola soha mutaxassislari, tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

### **Kalit so‘zlar**

*Autizm spektri buzilishlari, bolalar psixik rivojlanishi, tashxis, genetik omillar, erta aniqlash, zamonaviy davolash, reabilitatsiya, pedagogik yondashuv, psixologik yordam, neyrodivergent bolalar*



## Abstract

This article provides a comprehensive overview of Autism Spectrum Disorders (ASD) in children, including the key symptoms, diagnostic methods, causes, and modern treatment approaches. Today, ASD is considered a complex neurological developmental disorder that leads to various social, emotional, and communicative difficulties. The article discusses the role of genetic and environmental factors in the development of autism, the importance of early diagnosis, as well as evidence-based psychological, pedagogical, and medical methods used in therapy and rehabilitation processes. It also emphasizes the necessity of improving the knowledge and competencies of parents and educators in this area. This article can be useful for professionals in the field, healthcare workers, psychologists, educators, and parents.

## Keywords

*Autism spectrum disorders, child psychological development, diagnosis, genetic factors, early detection, modern treatment, rehabilitation, pedagogical approach, psychological support, neurodivergent children*

## Аннотация

В данной статье всесторонне рассматриваются расстройства аутистического спектра (РАС) у детей, включая их основные признаки, методы диагностики, причины возникновения и современные подходы к лечению. В настоящее время РАС рассматриваются как сложные неврологические нарушения развития, приводящие к различным социальным, эмоциональным и коммуникативным трудностям. В статье освещается связь аутизма с генетическими и экологическими факторами, подчеркивается важность ранней диагностики, а также представлены научно обоснованные психологические, педагогические и медицинские методы, применяемые в процессе терапии и реабилитации. Отдельное внимание уделяется необходимости повышения

уровня знаний и квалификации родителей и педагогов в данной области. Статья может быть полезна специалистам, медицинским работникам, психологам, педагогам и родителям.

## Ключевые слова

Расстройства аутистического спектра, психическое развитие детей, диагностика, генетические факторы, раннее выявление, современные методы лечения, реабилитация, педагогический подход, психологическая помощь, нейроотличающиеся дети

## Kirish

Zamonaviy tibbiyot va psixologiya fanlari taraqqiyoti natijasida bolalardagi nevrologik rivojlanishdagi muammolarni erta aniqlash va ularga samarali yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyati kengaymoqda. Shunday buzilishlardan biri bo‘lgan autizm spektri buzilishlari (ASB) bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu buzilish ijtimoiy muloqotda, hissiy javob qaytarishda, nutq va xulq-atvorlarda o‘ziga xos cheklovlар bilan ifodalanadi hamda har bir bola uchun alohida kechadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyoda minglab bolalarda autizm alomatlari aniqlanmoqda va ularning soni ortib bormoqda. ASB nafaqat bola va uning oilasi uchun, balki ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash sohasi va jamiyat uchun ham muhim muammolardan biriga aylangan. Ushbu buzilishning aniqlanishi va uni to‘g‘ri baholash bolaning kelgusidagi hayoti, ta’lim olishi, jamiyatga integratsiyalashuvi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli autizm spektri buzilishlarini erta aniqlash, uning sabablari va davolash usullarini chuqur o‘rganish hozirgi kunda ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqolada ASBning ilk belgilari, diagnostika jarayonlari, ehtimoliy sabablar va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy davolash va reabilitatsiya yondashuvlari hamda ularning o‘zbek sharoitida

qo'llanilish imkoniyatlari yoritiladi. Bu mavzuning o'rganilishi orqali nafaqat kasallikning tibbiy jihatlari, balki ijtimoiy va pedagogik yo'nalishlari ham chuqr tahlil qilinadi.

## Asosiy qism

Autizm spektri buzilishlari (ASB) — bu markaziy asab tizimi faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish nevrologik holatidir. U odatda erta bolalik davrida, ya'ni hayotning dastlabki uch yilligida aniqlanadi. ASBga chalingan bolalarda ijtimoiy muloqot, nutqiy rivojlanish, his-tuyg'ularni anglash va ifodalash, xulq-atvor va qiziqishlarda o'ziga xos cheklovlar va g'ayritabiyliliklar kuzatiladi. Ushbu buzilish "spektr" deb atalishining sababi shundaki, u turlicha og'irlik darajalarida va har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda belgilar yengil shaklda bo'lishi mumkin, boshqalarida esa chuqr nevrologik cheklovlar bilan kechadi. ASBning ilk belgilari hayotning 12-24 oylarida ko'zga tashlana boshlaydi. Biroq ko'plab hollarda bu alomatlar ota-onalar yoki tarbiyachilar tomonidan erta aniqlanmaydi. Autizmga xos bo'lgan asosiy belgilar quyidagilardan iborat. Ijtimoiy o'zaro ta'sirda qiyinchiliklar: bola boshqalarning ko'zlariga tik qaramaydi, nomiga javob bermaydi, o'z tengdoshlari bilan o'ynashga qiziqmaydi. Nutq rivojlanishining kechikishi yoki butunlay yo'qligi. Qayta-qayta takrorlanuvchi harakatlar: qo'lni qoqish, aylanish, narsalarni tartiblash. Kundalik odatlarni o'zgartirishga qarshilik: yangi joyga borishni yoqtirmaslik, bir xil ovqatlarni xohlash. His-tuyg'ularni boshqarishda qiyinchilik: baland ovozlarga yoki yorug'likka haddan ortiq sezuvchanlik. Ijodiy o'yinlarga qiziqmaslik, tasavvurdan foydalanmaslik Tashxisni aniq qo'yish uchun maxsus psixologik va tibbiy sinovlar, kuzatuvlar va baholash mezonlari qo'llaniladi. Dunyoda keng tarqalgan "ADOS" (Autism Diagnostic Observation Schedule) va "ADI-R" (Autism Diagnostic Interview – Revised) metodikalari orqali aniqlik kiritiladi. Autizmning aniq sabablari to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, ko'plab ilmiy tadqiqotlar uning ko'p omilli tabiatini borligini ko'rsatmoqda. Ushbu omillar quyidagilar. Genetik omillar avloddan-avlodga o'tuvchi genetik o'zgarishlar yoki mutatsiyalar autizm rivojlanish xavfini oshiradi. Shu

jumladan, sinapslar (asab hujayralari orasidagi aloqalar)da ishtirok etuvchi ba'zi genlar ASB bilan bog'liq deb topilgan. Prenatal omillar onaning homiladorlik davrida virusli infeksiyalar bilan kasallanishi, toksik moddalarga duchor bo'lishi, stress holatlari yoki noto'g'ri ovqatlanishi bolaning miya rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Perinatal va postnatal omillar tug'ruq asoratlari, past vaznda tug'ilish, neonatal asfiksiya (kislород yetishmovchiligi), miya shikastlanishlari kabi holatlar autizm xavfini kuchaytiradi. Ekologik omillar Atmosferadagi zararli moddalar, og'ir metallar, kimyoviy pestitsidlar kabi toksinlarning ko'pligi miyada rivojlanish jarayonlarini izdan chiqarishi mumkin. ASBning yuzaga kelishida faqat bitta omil emas, balki bir nechta omillarning kombinatsiyasi rol o'ynashi ehtimoldan holi emas. ASB hozirgi kunda to'liq davolanmaydi, biroq uning alomatlarini kamaytirish va bolaning ijtimoiy hayotga moslashishini ta'minlash uchun bir nechta zamonaviy muolajaviy yondashuvlar qo'llaniladi. Erta aralashuv dasturlari hayotning dastlabki uch yilda boshlanadigan individual reabilitatsiya dasturlari autistik alomatlarni ancha yengillashtiradi. Masalan, "Early Start Denver Model" (ESDM) va "Applied Behavior Analysis" (ABA) metodlari keng qo'llaniladi. Nutq terapiyasi Logopedlar yordamida olib boriladigan nutq va tilni rivojlantirish mashg'ulotlari bolalarda kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ergoterapiya bola hayotidagi mustaqil harakatlar, muvofiqlashtirish va sezgi integratsiyasi bilan ishslashga qaratilgan muolajalar muhim o'rinn tutadi. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish Psixologik treninglar, guruhli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar orqali bola ijtimoiy muhitga moslashishni o'rghanadi. Dori-darmon terapiyasi ba'zi hollarda muayyan alomatlarni yengillashtirish (masalan, agressivlik, bezovtalik) uchun psixotrop dori vositalari tavsiya etiladi, biroq ular ehtiyyotkorlik bilan qo'llaniladi. Ota-onalar bilan ishslash terapevtik jarayonlarda ota-onalarni faol jalb qilish, ularni bolaga qanday yondashishni o'rgatish muhim natijalarni beradi. Bu borada psixologik maslahatlar, treninglar va oilaviy terapiyalar samarali hisoblanadi. Autizmga chalingan bolalarning ta'lim tizimida o'z o'rmini topishi va teng imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun inklyuziv ta'lim yondashuvi dolzarbdir. Maxsus pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy mutaxassislar

ishtirokida bola ehtiyojiga moslashtirilgan o‘quv rejalar tuziladi. Bunda bolaning qobiliyatlari va imkoniyatlariga e’tibor berish zarur. Shuningdek, jamiyatda autizmga oid ongli yondashuvni shakllantirish, stereotiplarni yo‘qotish va nogironligi bo‘lgan bolalarni integratsiyalashga doir faoliyatlar olib borilishi kerak. Bu borada ommaviy axborot vositalari, nodavlat tashkilotlari va ta’lim muassasalarining roli katta.

### **Empirik tahlil**

Autizm spektri buzilishlarini chuqur o‘rganish va ularning bolalarda qanday kechishini aniqlashda empirik (tajriba asosida olingan) yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik kuzatuvlar va statistik tahlillar orqali autizm bilan bog‘liq muhim qonuniyatlar va holatlar aniqlanmoqda. Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 100 ta bolaning 1-2 nafari autizm spektri buzilishiga ega. AQShda 2023 yilda Milliy Autizm Ma’lumot Markazi (CDC) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda, har 36 boladan bittasida ASB tashxisi qo‘yilgan. Bu ko‘rsatkich 2000 yillarga nisbatan ikki baravarga ortgan. Ko‘pchilik mutaxassislar bu o‘sishni buzilishning kengroq spektrda aniqlanishi, diagnostika usullarining takomillashuvi va aholining bu boradagi xabardorligi ortgani bilan izohlaydi. O‘zbekistonda esa rasmiy statistik ma’lumotlar yetarli darajada to‘liq emas, biroq so‘nggi yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar psixonevrologiya markazlarida va xususiy klinikalarda autizm alomatlari bilan murojaat qilayotgan bolalar soni oshib bormoqda. Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida o‘tkazilgan mahalliy tadqiqotlar natijasida, 3-7 yosh oralig‘idagi bolalar orasida har 250-300 boladan birida ASBga xos belgilarning kuzatilgani aniqlangan. Rossiya Federatsiyasida olib borilgan tahlillar Moskva va Sankt-Peterburgdagi autizm markazlarida 2019–2022 yillarda 1200 dan ortiq bolalar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 70 foiz hollarda autizm 3 yoshdan so‘ng aniqlangan. Vaqtida tashxis qo‘yilmagan bolalarda ijtimoiy rivojlanishdagi orqalanish, nutqiy muammolar va tashqi dunyodan izolyatsiyalash holatlari kuchliroq ifodalangan. Yaponiya modeliga ko‘ra amaliyot Yaponiyada erta yoshdagi skrining dasturlari joriy

etilgach, 1-2 yoshli bolalarda autizm alomatlarini 85 foiz hollarda erta aniqlash imkoniyati paydo bo'lgan. Bu esa keyingi bosqichlarda reabilitatsiya va ijtimoiylashtirish jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtirgan. Tashxis olingan bolalarning 60 foizdan ortig'i boshlang'ich maktab davrida boshqa o'quvchilar bilan birga ta'lif olishga muvaffaq bo'lgan. O'zbekistonda amaliy kuzatuvlar 2021 yilda Toshkentdag'i bir qator nodavlat tashkilotlar va markazlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan amaliy kuzatuv natijalariga ko'ra, autizmga chalingan bolalarning 65 foizi 4 yoshdan so'ng tibbiy ko'rikdan o'tgan, bu esa ularda ko'plab kommunikativ va xulqiy muammolarning chuqurlashganini ko'rsatgan. 5 yoshdan keyin boshlanadigan terapiya jarayonlarining samaradorligi erta boshlangan terapiyaga nisbatan 2 barobarga past bo'lishi aniqlangan. Turli terapevtik metodlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan kuzatuvlar ham muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. ABA terapiyasi bo'yicha AQShda 600 nafar bola ustida olib borilgan tadqiqotda, 40 foiz holatlarda nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalar sezilarli darajada yaxshilangan. Sensor integratsiya terapiyasi qo'llangan bolalarda sezgi va muvozanat buzilishlari 6-8 oy ichida kamaygan. O'zbekistondagi "Imkon" markazida bunday terapiya olingan bolalarning 75 foizi ota-onalari tomonidan ijobiy baholangan. Ijtimoiy ko'nikmalar dasturlari ishtirokchilari bo'lgan bolalarda 4 oy ichida o'zaro aloqa qilish ko'nikmalarida 30–50 foiz yaxshilanish qayd etilgan. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar va pedagoglar autizmga ega bolalarning ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. AQShning "National Autistic Society" tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan 2000 nafar ota-onaning 68 foizi o'z farzandining autizm belgilari haqida ilk bor tarbiyachilar va bog'cha psixologlari orqali bilganini bildirgan. Bu esa ta'lif muassasalarida mutaxassislar malakasini oshirishning dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa ko'plab holatlarda ota-onalar autizmni oddiy kechikkan nutq yoki tarbiyaviy muammo deb hisoblab, mutaxassisga murojaat qilishni kechiktirishadi. Bu esa farzandlarining rivojlanishida vaqt yo'qotilishiga olib kelmoqda. Shu boisdan, ota-onalarni doimiy ma'lumotlar bilan ta'minlash, psixologik yordam va maslahatlar berish bo'yicha tizimli yondashuv zarur.

## Xulosa

Autizm spektri buzilishlari bugungi kunda jahon sog‘liqni saqlash tizimining eng dolzarb va murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. ASBning murakkabligi shundaki, u har bir bolada individual tarzda namoyon bo‘ladi va bu holat diagnostika, davolash, reabilitatsiya hamda ijtimoiy integratsiya jarayonlarida o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, autizmning erta aniqlanishi va mos rehabilitatsion chora-tadbirlarning qo‘llanilishi bola rivojlanishi va kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamонавиј ilmiy asoslar shuni ko‘rsatmoqdaki, autizmga sabab bo‘luvchi omillar bir nechta bo‘lib, ularning asosiy qismini genetik mutatsiyalar, prenatal va postnatal omillar, shuningdek ekologik ta’sirlar tashkil etadi. Bu omillarning kombinatsiyalashuvi natijasida bolaning markaziy asab tizimida murakkab rivojlanish nuqsonlari yuzaga keladi. Ko‘plab hollarda bu omillarni bartaraf etishning imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, ularni erta aniqlash va profilaktik choralarни kuchaytirish orqali ASB rivojlanish xavfini kamaytirish mumkin. Empirik tahlillar, xususan, xorijiy davlatlar va O‘zbekiston sharoitida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, autizmga chalingan bolalarning aksariyati erta yoshda to‘g‘ri tashxis olmagani sababli asosiy reabilitatsiya imkoniyatlarini yo‘qotmoqda. Ayniqsa, 3 yoshdan avval aniqlangan holatlarda qo‘llanilgan ABA terapiyasi, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari va ijtimoiy adaptatsiya dasturlari orqali ijobiy natijalar qayd etilgan. Shuningdek, ota-onalarning bilimli va faol bo‘lishi bolaning o‘z vaqtida mutaxassisiga murojaat qilishi va davolash jarayonlarida faol ishtirok etishi bilan bog‘liq ijobiy dinamikani ta’minlaydi. Ta’lim tizimida esa inklyuziv yondashuvni kengaytirish, maxsus pedagoglar va psixologlar tayyorlash, ularning doimiy malakasini oshirish, autizmga chalingan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan dasturlarni joriy etish eng muhim vazifalardan biridir. Bu borada Yevropa va Osiyo davlatlarining tajribasi O‘zbekistonda qo‘llash uchun qimmatli yo‘nalishlar berishi mumkin. Misol uchun, Yaponiyada amalga oshirilgan erta skrining tizimlari yoki Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy moslashtirish markazlari orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash amaliyotini yurtimizda ham

bosqichma-bosqich joriy etish lozim.Xulosa tariqasida aytish mumkinki, autizm spektri buzilishlari ko‘p qirrali bo‘lishi bilan birga, unga qarshi kurashish ham kompleks, tizimli va hamkorlik asosida olib borilishi zarur. Bu jarayonda tibbiyot xodimlari, pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va keng jamoatchilik o‘zaro hamjihatlikda harakat qilishi kerak. Har bir autizmga ega bola o‘zining qobiliyatları va imkoniyatlari doirasida jamiyatda to‘laqonli hayot kechirish huquqiga ega. Shu bois, ularga yaratiladigan sharoitlar va beriladigan yordam darajasi biror davlatning ijtimoiy siyosatidagi gumanizm mezonining muhim ko‘rsatkichidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Grandin, T. (2011). *The Way I See It: A Personal Look at Autism and Asperger's*. Future Horizons.
2. Frith, U. (2003). *Autism: Explaining the Enigma*. Blackwell Publishing.
3. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5)*. Washington, DC.
4. World Health Organization (WHO). (2022). *Autism spectrum disorders*.  
<https://www.who.int>
5. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). (2023). *Data and Statistics on Autism Spectrum Disorder*. <https://www.cdc.gov>
6. Djonov, Sh. (2020). *Bolaning psixik rivojlanishida autizm holatlari*. Toshkent: “Yangi avlod” nashriyoti.
7. Rutter, M., & Bailey, A. (2014). *Rutter's Child and Adolescent Psychiatry*. Wiley-Blackwell.
8. Bekmurodov, M., & To‘laganov, A. (2021). *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
9. Hossain, M. M., et al. (2020). "Global burden of autism spectrum disorders and its associated risk factors: An updated systematic review." *Psychiatry Research*, 291, 113246.

10. Ubaydullayev, A., & Karimova, M. (2022). *Autizm: diagnostika va reabilitatsiya masalalari*. Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy to‘plami, 1(24), 56–62.